

Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi
Elektron pochta manzili: jabborov1974@gmail.com

NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "OFOQ VA ANFUS" NAZARIYASI

Annotatsiya: Tasavvuf ta'limotining asosiy bo'g'ini bo'lgan Kubroviya ta'limotining maqsad-mohiyati, uning falsafiy asoslari, Najmiddin Kubroning "Ofoq va anfus" ya'ni katta va kichik olam haqidagi qarashlari, inson ma'naviy kamolotida ushbu nazariyaning ahamiyati, bugungi yosh avlodni tarbiyalashda insonparvarlik g'oyalarining o'рни, Kubroviya ta'limotida insonning ma'naviy, ruhiy, g'oyaviy yuksalish bosqichlari hamda "Anfus" – ya'ni kichik olamni anglash orqali "Ofoq" – katta olam mohiyatini anglab etish mumkinligi ilmiy-falsafiy jihatdan bayon qilinadi

Kalit so'zlar: ofoq, anfus, olami kabir, olami sag'ir, latif.

Джаббаров Икромджон Джуманиязович
научный сотрудник Бухарского инженерно-технологического института
E-mail: jabborov1974@gmail.com

ТЕОРИЯ «ОФАК И АНФУС» В УЧЕНИИ НАДЖМИДДИНА КУБРО

Аннотация: Цель и суть учения Кубровии, которое является основным звеном суфизма, его философские основы, взгляды Наджмуддина Кубро на «Офак ва анфус», то есть большой и малый мир, значение этой теории в духовном зрелости человека, сегодня Роль гуманистических идей в воспитании молодого поколения, этапы духовного, духовно-мировоззренческого роста человека в кубровском учении и возможность постичь суть большого мира через понимание «Анфуса» - т. е. тесен мир - объясняется философски

Ключевые слова: Афак, Анфус, Алами Кабир, Алами Сагир, Латиф.

Jabbarov Ikromjon Jumaniyazovich
Researcher of the Bukhara Institute of Engineering and Technology
Elektron pochta manzili: jabborov1974@gmail.com

THEORY OF "OFAC AND ANFUS" IN THE TEACHING OF NAJMIDDIN KUBRO

Annotation: The purpose and essence of the doctrine of Kubroviya, which is the main link of Sufism, its philosophical foundations, Najmuddin Kubro's views on "Ofaq and Anfus", that is, the big and small world, the importance of this theory in human spiritual maturity , the role of humanistic ideas in the education of today's young generation, the stages of spiritual, spiritual, and ideological growth

of a person in the teachings of Kubroviya, and the realization of the essence of "Anfus" - that is, the small world - the essence of the big world. possibility is explained scientifically and philosophically

Keywords: Afak, Anfus, Alami Kabir, Alami Sagir, Latif.

KIRISH (ВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Ma'lumki, mamlakatimizda ulug' ajdodlarimiz, donishmand allomalarimiz qoldirgan ma'naviy va madaniy merosga katta e'tibor qaratilganligi sababli ular yaratgan g'oyalardan oqilona foydalangan holda, bugungi yosh avlodni har jihatdan komil inson qilib shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarimiz qoldirgan ta'limotlar mohiyatini chuqur tadqiq etish, ularni anglash, tushunish hamda kundalik hayotimizda ularga amal qilgan holda yashash hozirda real voqelikka aylanib bormoqda. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, bugun dunyoviy ilmlar bilan bir vaqtda diniy qadriyatlarimiz o'rtasida uzviy bog'liqlik yuzaga kelgan bo'lib, bu nafaqat yurtimiz, balki butun jahon mamlakatlari rivoji uchun katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda jahonda Najmiddin Kubroning ilmiy-ma'naviy merosida inson mohiyatini o'rganib, falsafiy tahlil etish bo'yicha qator ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: inson ma'naviy-axloqiy inqirozining oldini olishga oid; milliy-ma'naviy meros zahiralarini boyitish; insonlar orasida mehr-oqibat, bag'rikenglik, o'zaro hurmat tuyg'ularini shakllantirishga oid ilmiy konsepsiyalar yaratish; egotsentrizmning potensial sabablarini bartaraf etishga oid; inson ma'naviy taraqqiyoti tarixida alohida shaxslarning tutgan o'rnini tadqiq etish; tasavvuf ta'limoti tarixini yanada boyitishda Markaziy Osiyo tasavvufshunos mutafakkirlari ilmiy ma'naviy merosining fundamental ahamiyatini ochib berish va x.k.

Tasavvuf ta'limoti mazmun-mohiyati bilan insonshunoslikdir. Ya'ni, insonni har jihatdan kashf qilish, uni ma'nan yuksaltirish, ruhiy kamolotga erishtirish, Haqqa vosil bo'lishidagi vositadir. Jumladan, Najmiddin Kubro tasavvufda o'ziga xos bo'lgan yo'lni yaratib, butun musulmon olamida ma'lumu-mashhur bo'ldi.

Shayx Najmiddin Kubro orif inson sifatida kishilarning ruxiyatini chuqur o'rgangan. Allomaning ta'kidlashicha, inson zoti "Olami sug'ro" ya'ni kichik olam bo'lib, unda "Olami kubro" – katta olamning barcha xususiyatlari mujassamdir. Inson taraqqiy etib borsa, u Allohning "Rahmon" va "Rahim" sifatlaridan boshqa barcha sifatlarini egallaydi.

Inson Allohning suyuqli bandasi, jami yaratilgan mavjudotlarning qaymog'i, olamning gultojidir. Muqaddas Qur'oni karimda odamzotning aziz va mukarram qilinganligi, Yer yuzidagi barcha mavjudotlar unga bo'ysundirilganligi bir necha bor ta'kidlanadi. Boshqa mavjudotlardan afzalligi hamda buyukligi shundaki, unga

Alloh taolo aql ne'matini ato etgan. Aql yordamida u borliqdagi barcha narsa va hodisalarning mohiyatini anglab oladi, shu orqali o'zini va tashqi olamni isloh qiladi. Shuning bilan birga Alloh unga botiniy nur bergan. Qalbini butun olamga ko'zgu qilib yaratgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Shayx Kubroning tasavvufga olib kirgan yangiliklaridan biri –“Ofoq va anfus” nazariyasini tatbiq etish bo'lgan. “Ofoq va anfus” degani – Olami sag'ir (kichik olam) va Olami kabir (katta olam) orasidagi munosabatlardir. Ilohiyot olami – kayhon Olami kabir, ya'ni ulug' Olam bo'lsa, inson – Olami sag'irdir. Olami sag'ir – Olami kabir, ilohiyot olamining va moddiy olamning, ya'ni Olam chorgohlarining butun xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun insondagi – taraqqiyot - Olami kabir, ya'ni Ulug' Olam bilan bog'liq. Ulug' Olamning o'zidagi o'zgarishlar ham insonning hayoti, tafakkuri, ruhining taraqqiyoti bilan bog'liq. Mana shunday qarashlarning vujudga kelishida Najmiddin Kubroning xizmatlari kattadir. Darhaqiqat, inson borliq, moddiy olamning mohiyatini hamda uning qanday vujudga kelishi yoki qonuniyatlarini anglab yetishi uchun dastavval o'zini, o'z borlig'ini tadqiq etishi lozim.

Najmiddin Kubro haqiqat asroriga yetishish maqsadida, o'z tasavvuf maktabini yaratdi. Uning ta'limotiga ko'ra, inson o'z mohiyati e'tibori bilan mikrokosm, ya'ni kichik Olamni tashkil qiladiki, u makrokosm, ya'ni katta Olam, koinotda mavjud bo'lgan barcha borliqlarni o'zida mujassamlashtiradi. Biroq, yuqori samoviy doiralarda ilohiy sifatlar tartib bilan o'ziga hos maqomlarni egallaganligi bilan, haqiqat toliblari bunday yuksakliklarga ko'tarilib, ilohiy sifatlarga ega bo'lishi uchun, ya'ni kamolotlarga erishishi uchun, ma'lum riyozatli yo'llarni bosib o'tishlari zarur [1]. Albatta, inson tasavvufdagi ruhiy-ma'naviy bosqichlarni bosib o'tmaguncha yuksak ilohiy sifatlar sohibiga aylanmaydi va Haq taologa yaqinlik hosil qila olmaydi.

Muhokama. “Ofoq va anfus” tasavvuf boshqa buyuk mutafakkirlarining kosmologik qarashlarini ham o'zida aks ettirgan ta'limotdir. Mutasavviflarning xulosalariga ko'ra, insonni qurshab olgan tashqi dunyo olami kubro, ya'ni buyuk olam bo'ladigan bo'lsa, insonning o'zi–olami sag'ir – kichik olamdir. Inson va uning ichki dunyosi o'sha ulkan olamning kichraygan bir na'munasidir. Shu sababdan tashqi dunyoda mavjud bo'lgan hamma narsa insonda ham mavjuddir. Chunonchi: insonning vujudi – Yer yuzining, qalbi – tog'larning, ruhi – ko'k yuzining, ko'nglidagi ilmi – jannat mevalarining, yuragida tug'ilgan fayz va ilhom – yomg'irning, nafsi esa qor va muzlarning timsolidir. Bunday qiyoslar birinchidan, insonning o'zligini yaxshi anglashga yordam bersa, ikkinchidan olam va odamni birlikda – vahdat tuyg'usi orqali bilishga ilhomlantiradi.

Demak, Olami sug‘ro – inson ulug‘ Olamning bir nus‘hasi bo‘lib, o‘zida Olami kubroning barcha sifatlarini, xususiyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham tasavvufda ulug‘ maqom va martabaga erishgan Xoja Ahmad Yassaviyning muridi bo‘lmish Yunus Emro:

“Meni menda dema, menda emasman,

Bir Men bordir menda – mening ichimda” [2], deb yozadi.

Ta’kidlash joizki, tasavvuf ta’limoti negizida Allohga intilish, o‘zlikni anglash, inson qalbining ochilmagan imkoniyatlarini ishga solish va shu bilan birga Allohning karomat nuridan bahramand bo‘lish yotadi. Jumladan, kubroviya ta’limotida inson o‘z ruhiyatini Tangri taologa yaqinlashtira oladi va tomchi suv dengizga singib, yo‘q bo‘lgani singari solik ruhi ham Buyuk Yaratuvchining cheksiz qudrati ichida yo‘qlikka aylanadi, degan qarashlar ustivordir. Demak, har bir inson “Ofoq va anfus”ning mohiyatini tafakkur qilmog‘i hamda uni anglab yetmog‘i kelajak hayotining asosini tashkil qiladi.

Najmiddin Kubroning irfoniy ta’limotida inson omili asosiy o‘rinni egallaydi. Inson tafakkuriga yuksak baho berib, u zot shunday ta’rif beradi: – “Inson bolasiga valiylik azaldan nasibadir, negaki odamzod Allohning suygan mahluqi, Parvardigor odamzodga ong-aql va botiniy nur bergan hamda uni barcha mavjudotdan afzal qilib yaratgan” [3]. Batahqiq, jumla odamzod boshqa mavjudotlar ichida Yaratganning marhamati bilan yuqoridagi sifatlar bilan sifatlanganligi uchun ham sharaflidir.

Falsafa har bir inson ma’naviy kamolotida doim ruh, ma’no, tafakkur erkinligini o‘ta muhimligini ta’kidlab kelgan. O‘tmishdan bizga ma’lumki, buyuk mutafakkirlarimiz ma’naviy-ruhiy yetuklikni vujudiy-nafsoniy istaklaridan ustun qo‘yishgan. Shu o‘rinda shayx Kubro hazratlari: “Qudsiy ruh latif va samoviydir. U himmat quvvati ila to‘lib-toshgani zamon samoga bitishur va samo unda g‘arq bo‘lur. Aslida ruh bilan samo ayni bir narsadir. Bu ruh betinim ravishda parvoz etar, yuksalar, quvvatlanar, tarbiyalanar va mukammallashar, samoning sharafidan ham oliy bir sharafiga erishmoq uchun ushbu hol davom etar. Nihoyat samo cho‘qqisini ishg‘ol aylar” [4], deydilar. Bu erda ruhiy yuksalish, kamolot to‘xtovsiz ro‘y berishi haqida so‘z boradi

Kubroviya ta’limotiga ko‘ra insonning ruhiy-ma’naviy yuksalishi uni Haqqa tomon yuksalishi uchun zamin yaratadi. Vaxolanki, muqaddas hadisi shariflarda “Allohning go‘zal sifatleri ila sifatlaning” deya marhamat qilinadi. Boshqa bir Hadisda “Alloh taolo insonni o‘z suratiga monand yaratdi” deb ta’kidlanadi. Albatta, bundan murod insonning tashqi-jismoniy ko‘rinishi emas, balki erkin ruhiy-ma’naviy hamda aqliy mavjudot ekanligidir.

Shayxi Kubro e’tiroficha, insonga bog‘liq muhim xususiyatlardan biri shuki, agar u tinimsiz ravishda izlansa, ilohiyot olamining ham, inson olamining ham

barcha siru sinoatlarini egallab oladi. Negaki, inson olami ulug' ilohiy olam bilan uzviy bog'liqligi sababidan inson olamining xususiyatlarini bilmasdan turib, ilohiy olam to'g'risidagi to'la-to'kis deb bo'lmaydi. Biroq, inson zoti ilohiy olam sirlarini ko'zi bilan ko'rib, qulog'i bilan eshita olmaydi, balki ruhiyatida yuz beradigan o'zgarishlarni aqlu-farosati yordamida hushyorlik bilan tahlil qilish orqali musharraf bo'ladi. Mana shuning uchun Najmiddin Kubro kayhoniy, ilohiy olamni bilishda intuitiv bilish usuliga urg'u beradi [5].

Tasavvuf tarixida juda ko'plab mutasavvuf ulamolar o'z asarlarida bunday fikrlarni ko'plab bayon qilishgan. Jumladan hazrat Axmad Yassaviy, Abdulqodir Jiylo'niy, mavlono Jaloladdin Rumiy, ibn Arabiy, ibn Rushd hamda Aziziddin Nasafiy singari ulug' allomalarning bu boradagi qarashlarini misol keltirish mumkin.

Najmiddin Kubroning g'oyalarini sistemalashtiruvchi Aziziddin Nasafiy shunday yozadi: "Ey darvesh! Mavjudot bir tomondan alomatdir, boshqa bir tomondan maktubdir. Alomat bo'lganligi sababli olam deb atadi, maktub bo'lganligi sababli kitob deb ism qo'ydi. Avvalgi katta kitobni Olami kabir – katta olam deb atadi, ikkinchisini Olami sag'ir – kichik olam deb atadi. Avvalgisini katta kitob deb nom qo'ydi, ikkinchisini kichik kitob deb nom qo'ydi. Katta kitobda nimaiki bo'lsa, kichik kitobda qisqartirmasdan va ko'paytirmasdan barchasini yozib qo'ydi. Kimki kichik kitobni o'qigan bo'lsa, katta kitobni o'qigandek bo'ladi. So'ng O'z xalifasini kichik olamga xalifalikka yubordi. Xudoning xalifasi Aqlidir" [6].

Inson ruhiy-ma'naviy kamoloti to'g'risidagi qarashlar qadimgi dinlar yoki falsafiy ta'limotlarda ham o'z aksini topgan. Jumladan qadimgi Hind va Xitoy falsafasi yoki buddaviylik va zardushtiylik ta'limotlarida ham juda ko'plab diniy-irfoniy, ilmiy-falsafiy fikrlar bayon qilingan. Ammo ulardan farqli o'laroq tasavvuf ta'limoti muqaddas Islom dini ta'limoti va g'oyalari bilan sug'orilganligi bilan ajralib turadi.

NATIJALAR (PEZUYLTATY / RESULTS)

Insonning ruhiy-manaviy jihatdan takomillashuvi undagi insoniy sifatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Ya'ni inson ham ma'nan, ham ruhan kamol topsa, undagi salbiy axloqiy sifatlarni o'rnini ijobiy, insoniy fazilatlar egallay boshlaydi. Oxir-oqibatda u komillik kasb etadi. Komil insonlar esa hamisha jamiyatni ezgulikka boshlab kelganlar. Ulug' avliyolar, siddiqlar, solih kishilar ana shunday komillik kasb qilgan zotlar bo'lib, ular Payg'ambarlarning vorislaridirlar. Ular butun hayotarini ezgu ishlarga, inson ruhiy-ma'naviy kamolotiga bag'ishlagan zotlardir. "Insonparvarlik (gumanizm) – inson zotiga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, moddiy farovonligini yuksaltirishga xizmat qilish va

odamlarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amho'rlik qilish g'oyalari sug'orilgan dunyoqarashdir" [7].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Shubhasiz tasavvufning bir shahobchasi bo'lgan kubroviya ta'limoti va uning falsafasi bugungi kunimizda ham inson ma'naviyatini yuksaltirishda, yosh avlodni ta'lim-tarbiyalashda, ularni vatanga muhabbatli, hayotga teran ko'z bilan qaraydigan dunyoqarashi keng insonlar bo'lib etishishida beqiyos ahamiyatga egadir. Jumladan Shayx Najmiddin Kubro butun ijodining mohiyati ham qisqa qilib aytganda – insondir. Chunki u zotning deyarli barcha asarlarida mana shu masala bosh o'rinda turadi. Shu bilan birga ta'kidlamoq lozimki, insonga bo'lgan munosabat, ya'ni insonparvarlik singari oliyjanob tuyg'ular ham shundan hosil bo'ladi.

“Ofiq va anfas” (katta va kichik olam) nazariyasining asoschisi Najmiddin Kubroning boy ma'naviy merosini o'rganish, tadqiq etish orqali tariximiz, madaniyatimiz, milliy qadriyatlarimizning naqadar mumtoz va ulug'vorligi, u zotning hayoti o'zligini anglab yetgan inson uchun ibrat va saboq ekanligini har birimiz chuqur xis qilamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Shayx Najmiddin Kubro. Shayxi risolaye odobul zokirin. / Tarjimon: M.Qodirov, mas'ul muharrir: M.Safarboyev. – Urganch: “Xorazm” nashriyoti, 1997. – B.11.
2. Mahmud As'ad Jo'shon. Yunus Emro va tasavvuf. Tarjimon: S.Sayfulloh. T., “Fan” nashriyoti. 2001 – B. 61.
3. Komilov N. Najmiddin Kubro (risola). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995. – B.47.
4. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. «Movarounnahr» Toshkent, 2004 34-b.
5. Otabek Safarboyev. Shayxlar va shahidlar kubrosi.T.: “JAVOHIR-ILM-NASHR”, 2024. – B.94.
6. Nasafiy A. Komil inson kitobi./N.Komilov, O.Davlatov tarjimasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi ACH, 2021. – B. 118.
7. Falsafa: qomusiy lug'at. / tuzuvchi va mas'ul muharrir: Q.Nazarov. – T.: Sharq, 2004. – B.166.